

# PSIXOLOGIK EXTIYOJLAR TUFAYLI O'SMIRLARNING BIR BIRIGA QARAMLIKLARI

**Mamadaliyev Muhammad ali Xamidullo o'g'li**

University of Business and Science nodavlat oliy ta'lim muassasasi

Pedagogika - psixologiya yo'nalishi 22-13 guruh talabasi

**Ilmiy raxbar: Bobayeva Ziyodaxon Maxamadjon qizi**

University of Business and Science nodavlat oliy ta'lim muassasasi

Pedagogika va psixologiya kafedrası katta o'qituvchisi

**Annotatsiya:** ushbu maqola orqali yoshlarni bir-biri bilan do'stlashishlariga bo'lgan psixologik ehtiyojlari haqida yoritib o'tilgan.

**Kalit so'zi:** psixologiya, sezgi, idrok, ruhiyat, ontogenetika, fiziologiya, filogenetika, pedagogika, ehtiyoj.

## INTERDEPENDENCE OF ADOLESCENTS DUE TO PSYCHOLOGICAL DEMANDS

***Mamadaliyev Muhammad Ali Khamidullo ugli***

*University of Business and Science non-state higher educational institution*

*Student of group 22-13, Pedagogy - psychology direction*

*Scientific supervisor: Bobayeva Ziyodaxon Makhamadjon kizi*

*University of Business and Science non-state higher educational institution*

*Senior lecturer, Department of Pedagogy and Psychology*

**Psixologiya**-inson faoliyati va hayvonlar xatti-harakati jarayonida voqelikning psixik aks etishi, ruhiy jarayonlar, holatlar, hodisalar, hislatlar to'g'risidagi fan. Psixologiyaning tadqiqot predmetiga sezgilar va idrok obrazlari, tafakkur va hissiyot, faoliyat va muomala kabi psixologik jarayonlar, kategoriyalar kiradi. Psixologiyaning asosiy vazifalari — psixika qonuniyatlarini, inson ruhiy holatlari shakllanishini filogenetik va ontogenetik taraqqiyot birligida ochishdan iboratdir. Mazkur vazifalar yechimini topishda psixologiya bir tomondan, biologiya fani sohalari bilan jumladan, fiziologiya bilan, boshqa tomondan esa, sotsiologiya, pedagogika, madaniyat tarixi, mantiq hamda ijtimoiy fanlar bilan

jips aloqaga kirishadi. Psixologiya eng avvalo, psixikaning insonga xos shakli bo'lmish ong va o'zini o'zi anglashni tadqiq etadi.

O'smir o'quvchilarni ta'lim va tarbiya berish ishlarida uchraydigan ayrim qiyinchiliklar bu yoshdagi bolalarning psixik rivojlanishi va hususiyatlarini ba'zan etarli darajada bilmaslikdan yoki inkor qilishdan kelib chiqadi. Kichik va katta yoshdagi maktab o'quvchilariga qaraganda o'smirlik yoshidagi bolalarni tarbiyalashda juda ko'p qiyinchiliklar bo'ladi. Chunki, kichik bolaning katta odamga aylanishi jarayoni juda qiyin kechadi. Bu jarayon o'smirlar psixologiyasining odamlar bilan bo'lgan munosabat formalarining jiddiy ravishda o'zgarishi, hamda hayot sharoitining o'zgarishi bilan bog'liqdir. Bu davrda o'smirlarning o'z shaxsiy fikrlari paydo bo'ladi. Ularda o'z qadr-qimmatlari haqidagi tushuncha kengayadi. Ilmiy psixologiyaning aniqlashi bo'yicha o'smirlarning psixik taraqqiyotini harakatga keltiruvchi kuchlar, ularning faoliyatlari bilan tug'iladigan extiyojlar bilan bu extiyojlarni qondirish imkoniyatlari o'rtasidagi dialektik qarama-qarshiliklarni yuzaga kelishi va bartaraf qilinishidan iboratdir.

Qarama-qarshiliklar ancha yuksak darajadagi psixik taraqqiyotini, ancha murakkab shakldagi faoliyat turlarini va shaxsning qator yangi psixologik hususiyatlarini tarkib toptirish orqali bartaraf qilishdan iboratdir. Shundan keyin psixik taraqqiyotning yuksakroq bosqichiga o'tiladi. Sana shu nuqtai nazardan o'smirlik yoshini yanada oydinroq qarab chiqaylik. Bola boshlang'ich sinfni tugatadi. Bolaning o'rta maktabda o'qishga o'tishi uning hayotida burilish davri hisoblanadi.

**Ehtiyoj** – insonning yashashi va kamol topishi uchun kerakli hayotiy vositalarga bo'lgan zaruriyat. Ehtiyoj kishilarning hayotiy vositalariga bo'lgan zaruriyatini ifodalovchi ilmiy kategoriya sifatida taraqqiyotning hamma bosqichlari uchun umumiy va doimiydir. Uning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi tarixiy ko'rinishi talab tushunchasidir. Talab ehtiyojdan farq qilib, mustaqil iqtisodiy kategoriya (ilmiy tushuncha) sifatida amal qiladi. Ehtiyojning

faqat pul bilan ta'minlangan qismi talabga aylanadi. Demak, talab – bu pul bilan ta'minlangan ehtiyojdir.

**O'smirlik** – yoshlik davridagi hayot davri va ko'pincha bolalik va kattalik (yetuklik) o'rtasidagi vaqtni anglatadi. Shuningdek, u “yosh kishiga xos ko'rinish, kuch – quvvat va boshqalar” deb ta'riflanadi. Uning ma'lum bir yosh oralig'idagi ta'riflari turlicha bo'ladi, chunki yoshlik xronologik jihatdan ma'lum bir yosh oralig'iga bog'lanishi mumkin bo'lgan bosqich sifatida belgilanmagan. Uning yakuniy nuqtasini tugallanmagan ish yoki jinsiy aloqa kabi muayyan faoliyat turi bilan bog'lab bo'lmaydi.

Ho'sh o'smirlik davridagi bolalar psixologik ehtiyojlar oshib boradi chunki bu davrda bola o'zi uchun yangiliklar yaratishni boshlaydi bu davrda unda sinfdoshlar o'rtoqlar do'stlar, o'zidan katta yoshdagi bolalar, oilaviy tengdoshlar bilan birga harakatlanish boshladi, bunday harakatlar davomida bolalarda o'z psixologiyasiga mos psixologiyaga ega bola bilan birga bo'ladi.

Buni koproq biron sinfda guruhda aholida ajralib qolishadi bunday bolalarda karakterlari va psixologik o'zgarishlari bir xilda bo'lgani sabablari ular bir birlari bilan oson muloqot qilishadi va oson til topishadilar, bunday juftliklar 2 yoki 3 kishidan tarkib topishi mumkin to'g'ri bundan ko'p bolalardan tarkib topishishi ham mumkin. Lekin unda sir saqlash tomonlari ishonchli bo'lmaydi. Ayrim hollarda faqat ikki kishi iborat bolganda sirdosh va yaqin o'rtoqlik yuzaga keladi.

Bunday juftlik mukammal bo'lishiga ularning psixologik ko'rsatkichlari yutuq va kamchiliklari bir birlarini to'ldirishidadur. O'zingizga ma'lumku o'sib kelayotgan yoshlar tashqi muhitga moslasha olmasliklari juda katta muommolarga olib keladi. Kuzatuvdagi yoshlar, Ikki kishi tengdoshlar

Maktabda birga bir maktab bir sinfda o'qishgan lekin bittasi o'qishini boshqa maktabga ko'chirgan va uzoq vaqt uchrashishmagan.

Kuzatuv obyektlar malumotlari (shartli ma'lumotlar bilan M va O ismli yigitlar)

### **M ismli yigit**

Yoshi: 27 yoshda

Ma'lumoti: tugallanmagan oliy

Metalni qayta ishlash kichik korhonasida muhandis mehanik

Oila qurmagan

### **O ismli yigit**

Yoshi: 28 yoshda

Ma'lumoti: o'rta maxsus

Mashina tuzatadigan usta

Oila qurmagan

Bu ikki yigit deyarli 6-7 yil davomida bir biri bilan uchrashishmagan chunki ikkasasini ham ishi boshqa boshqa va ularni bog'lovchi jiddiy bir sabab bo'lmagan. M ismli yigit mashina sotib olgach yigit bir biri bilan ko'p uchrasha boshlashdi. Ularning harakterlari va psixologiyasi shu darajada bir biriga mos tushdiki 1-2 oy ichida ularning orasidan qil ham o'tmaydigan do'stlarga aylanishdi. Bu yigitlarning psixalogiyasi va harakterlariga to'xtalib o'tmaslik hato bo'ladi.

### **M ismli yigit**

Temperamenti xolerik (o'ta qaysar)

Harakteri tez o'zgaruvchan lekin ko'p holatlarda og'ir bosiq

Hamma ishni rostmona qilishni va rost gapirishni yoqtiradi

Jahli juda tez chiqadi.

Har qanday tashqi ta'sirga javob qaytaradi.

### **O ismli yigit**

Temperamenti xolerik (o'ta qaysar)

Harakteri tez o'zgaruvchan lekin ko'p holatlarda og'ir bosiq

Hamma ishni oxirigacha qilishga harakat qiladi

Jahli juda tez chiqadi va buni sezdirishdan qo'rqmaydi.

Har qanday tashqi tasirga javob qaytaradi.

Ko'rib turganizdek ikki do'st psixologiyasi bir biriga juda yaqin va biri biri bilan yaxshi chiqishadi. M va O ismli yigitlar boshqa o'rtoqlar va do'stlar

davrasida bir-birini himoya qilishlari taqsimga loyiq ya'ni ular tashqi olam bilan munosabatlarda bir-biriga tayangan holda ish yurutishlari bir biriga bo'lgan psixologik ehtiyojlaridir. Bu yigitlar birga bo'lgan paytlarida yengilmas lekin yolg'iz holda bo'lishsa juda oson mag'lub bo'lishadi.

O'smirning nerv sitsemasining tarkib topayotgan munosabatlari tarkibiy natijasida kuchayadi va mutsahkamlanadi. O'smirni ish o'qish hamda sport mashg'ulotlari paytida to'g'ri va chuqur nafas olishga o'rgatish zarurdir. Bu narsa shuning uchun ham muhimdirki, bo'yni tez o'sishi organizmda modda almashishining jadallashishi bilan o'smir ko'p miqdorda kislorodga muhtoj bo'ladi. Bu yoshda o'smirning toza havoda bo'lishi ayniqsa muhimdir. O'smirlik yoshida yurak ikki baravardan ko'proq o'sadi, gavda esabir yarim barobar o'sadi. Arteriyalari diametrining o'sishi yurakning o'sishidan orqada qoladi. Qon tomirining yo'li yurak hajmiga nisbatan kamayadi va bu nerv qalqonsimon bezlari faoliyatining kuchli darajada tezlashuvi bilan birgalikda qon bosimining ortishiga va yurak faoliyatining kuchayishiga olib keladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Махаммаджановна, В. З. (2020). O'smirlik davrida delinkventlikning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar. *Евразийский научный журнал*, (1), 60-62.
2. Bobayeva, Z. M. Q. (2023). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish. *Science and Education*, 4(2), 973-977.
3. Бобаева, З. М. (2021). Формирование толерантности у школьников в процессе изучения этнокультуры различных народов. In *Диалог культур и толерантность общения* (pp. 66-71).
4. Ogli, M. M. A. X., & Qizi, O. Z. M. (2024). O'SMIRLAR YOSHLARDA AGRESSIV XULQ-ATVORNING VAQTINCHALIK VA DAVOMLI SHAKLLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI

OMILLAR. *Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture*, 4(2), 68-72.